



**JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING DAVLAT
ORGANLARI VA NODAVLAT-NOTIJORAT TASHKILOTLAR BILAN
HAMKORLIGINI TUSHUNCHASI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti

Meylimurodov Eldor Elyor o'g'li

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqola mavzusining dolzarbli shundaki, tadqiqot ishida jazoni ijro etish muassasalarining davlat organlari va nodavlat-notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik tizimini takomillashtirish yuzasidan fikr va mulohazalar, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va kamchiliklar, muammolar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, jazoni ijro etish muassasalarining davlat organlari va nodavlat- notijorat tashkilotlar bilan hamkorligini ta'minlash yuzasidan ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarining hamkorligi jarayonida yuzaga keladigan nazariy va amaliy muammolarning yechimlariga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

ANNOTATION: *The article of the research topic of the graduate thesis is that the research work includes opinions and comments on improving the cooperation of penal institutions with state bodies and non-governmental organizations, the measures and shortcomings, problems, their specific features, the implementation of punishment in this regard. The experience of advanced foreign countries in ensuring the cooperation of correctional institutions with state bodies and non-governmental organizations, as well as proposals and recommendations aimed at solving theoretical and practical problems arising in the process of cooperation of penal institutions were developed.*

Dunyoning barcha rivojlangan davlatlarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bilan birga jinoyatchilikka qarshi kurash, jinoyatlarni barvaqt oldini olish, g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo'lgan shaxslarni ijtimoiy foydali mehnatga jalg etish hamda ushbu toifadagi shaxslarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor



qaratiladi. Har qanday tashkilot, korxona, muassasa o'zining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni to'laqonli bajarishi uchun va ish samaradorligini oshirish hamda kengaytirish uchun boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan holda amalga oshiradi. Jumladan, jazoni ijro etish muassasalari tomonidan amalga oshirilayotgan har bir hamkorlik muassasa faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishda va muassasadagi mavjud muammolarni hal etishda muhim hisoblanadi. Jazoni ijro etish muassasalari tomonidan bir qator davlat organlari bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu hamkorlik har bir jazoni ijro etish muassasalarini xususiyatidan kelib chiqqan holda zaruratga qarab doimiy ravishda amalga oshirilib kelinadi. Jazoni ijro etish muassasalari bilan boshqa sohaviy xizmatlarning hamkorligidagi o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi¹: birligina favqulodda vaziyatlar xizmati xodimlari bilan hamkorlik aloqalariga to'xtolib o'tadigan bo'lsak, muassasa joylashgan hududdagi har bir xonodon, korxona, tashkilot va muassasada yong'in xavfsizligi qoidalariga rioxaliga etilishi bo'yicha nazorat o'rnatish, bu borada axborot almashish, mahallalardagi yong'inga qarshi suv havzalarining holati, o't o'chirish vositalari, ko'cha va o'tish yo'llari, aloqa tarmoqlarining mavjudligi va sozligini nazorat qilish, aniqlangan nosozliklarni bartaraf etishdagi hamkorlik, hududdagi ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari va aholi o'rtasida yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha suhbatlar va boshqa tashkiliy tadbirlar o'tkazish, shuningdek o'tkaziladigan «Yong'in xavfsizligi» oylarida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash kabi masalalarda hamkorlik qiladi.

Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning huquqlarini ta'minlash, mahkumlarning haq-huquqlari poymol etilishi, qiyinoq yoki boshqa turdag'i inson qadr-qimmatini kansituvchi harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga yaratilgan sharoitlarni o'rganish maqsadida 2020 yil davomida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va jamoatchilik vakillari tomonidan 46 ta muassasalarda hamkorlikda monitoring tashriflari amalga oshirildi. Shuningdek, qator yillar

¹ Qodirov Q.B. O'zbekistonda penitensiar muassasalar faoliyati tarixi. Monografiya. Toshkent. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi. 2023-B. 104.



davomida respublika penitensiar muassasalariga Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasi, Yevropa Ittifoqi delegatsiyalari, turli mamlakatlarning O'zbekistondagi elchixonalari vakillari, bir qancha xorijiy axborot agentliklarining muxbirlari tomonidan tashriflar amalga oshirilgan. "Markaziy Osiyo turmalarida sog'liqni saqlash" loyihasi doirasida "Xalqaro turma islohoti" nodavlat tashkiloti bilan yaqindan hamkorliklar olib borildi. Mazkur tashkilot bosh kotibi, Buyuk Britaniya parlamentining Lordlar palatasi a'zosi, baronessa Vivien Stern¹⁰, BMTning Din va vijdon erkinligi bo'yicha Maxsus ma'ruzachisi Ahmad Shahid, Germaniya jamiyatining qamoqxonalar bo'yicha ekspertlari O'zbekistonga bir necha bor tashrif buyurganlar.²

Jazoni ijro etish muassasalarining boshqa davlat organlari va nodavlat-notijorat tashkilotlari bilan hamkorligining ahamiyati shundaki, aynan jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalari hamkorlik olib borayotgan tashkilotlarning va bevosita jazoni ijro etish muassasasining o'zining tashabbusi bilan mahkumlarni ish bilan ta'minlash masalasi ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish orqali jazo muddatini o'tab bo'lgandan keyin ozodlikka chiqib xalqqa foydasi tegadigan kasb egasi bo'lishini ta'minlash, mahkumlarning sog'ligi holati yuzasidan olib borilishi kerak bo'lgan tadbirlarni amalga oshirish, mahkumlarni ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqa masalalar yuzasidan qilinayotgan ishlarning samaradorligini oshirish va ko'lamenti kengaytirishdan iboratligi bilan ahamiyatlidir. Har bir jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarni qonunga itoatkor ruhda tarbiyalash, sodir etilgan jinoyatdan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi o'z navbatida, amalda samarali natijalarga erishishga asos bo'lib xizmat qiladi. Mahkumlarni to'g'ri yo'lga solishning eng asosiy va samarali usuli sifatida tarbiyaviy-profilaktik tadbirlarning hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishini ko'rsatishimiz mumkin. Bunday tashkilotlar va ularning vakillari jumlasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: Ichki ishlar bo'limlari vakillari; prokuratura organlari vakillari; sud organlari vakillari; soliq bo'limi vakillari; diniy tashkilotlar vakillari; yoshlar bo'yicha tashkilotlar vakillari; madaniyat

² Sattorov A. El-yurt osoyishtaligi generallari.T. "NISO POLIGRAF". 2021.- B. 242.



va ma’naviyat bo’limlari vakillari; bank bo’limi vakillari; hokimiyat vakillari; kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limlari va boshqalar. Mahkumlarning tarbiyalanish jarayonidagi eng muhim omil bu mahkumlarning ongiga ta’sir etib, ularning ruhiyatidagi o’zgarishlarni o’rganib, tahlil etish orqali ularga ijobiy ta’sir ko’rsatishdir. Bu ishlarni amalga oshirishda bevosita mutaxassis psixologlarning ishtiroki muhim sanaladi. Joylardagi jazoni ijro etish muassasalarida mutaxassis psixologlar bilan “Psixologik marafon ” tadbirlari o’tkazilib, ularda bir qancha psixologik treninglar tashkil etilib kelinmoqda. Ushbu trening mashg’ulotlarida bir qancha turli mavzulardagi suhbatlar tashkil etilib buning natijasida mahkumlardagi mavjud bo’lgan va yuzaga kelishi kutilayotgan salbiy holatlarning ro’y berishidan oldin ularning ruhiyatida ta’sir ko’rsatib, ulardagi salbiy holatlarni bartaraf etish bo’yicha ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tadbirlarda ruhiy holatida o’zgarishlar kuzatilgan mahkumlar bilan alohida ishlar olib borilib, bunday toifadagi mahkumlardan psixologik testlar olinib, test natijalari bo’yicha ular bilan suhbatlar tashkil etib yuzaga kelgan ruhiy holatdagi bo’shliqlarni, o’zgarishlarni to’ldirish bilan bog’liq yo’nalishlarda harakatlar amalga oshirilmoqda. Bunday psixologik tadbirlarni va trening mashg’ulotlarini o’tkazish natijasida mahkumlarning ruhiy holatlari yaxshilanib, tushkunlikka tushish, affekt, stress, depressiya holatlarining oldi olinadi, shuningdek, ruhiy holati buzilishi bilan bog’liq bo’lgan o’ziga-o’zi tan jarohati yetkazishi holatlarining kamayishiga erishiladi.

Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o’tayotgan har qanday yoshdagi mahkumlarni ma’naviy dunyosini boyitish, ularda hayotga bo’lgan qiziqish hissini shakllantirish, kelgusidagi amalga oshirishi mumkin bo’lgan turli xil faoliyat yo’nalishlari bo’yicha intilishlarini kengaytirish, sog’lom raqobat muhitini shakllantirish orqali o’ziga bo’lgan ishonchini oshirish maqsadida jazoni ijro etish muassasalarining hamkor tashkilotlari qatorida bo’lgan Yoshlar ishlari agentligi va Respublika Ma’naviyat markazlari bilan hamkorlikda “Kitobxonlik kechalari”, “Zakovat” intellektual o’yinlari tashkil etilib kelinmoqda. Jazoni ijro etish muassasalarida hamkor tashkilotlar ishtirokida o’tkaziladigan tadbirlar davomida mahkumlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi oshib



bormoqda. Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarning bandligi ta'minlanib, ularning huquqiy, diniy, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy bilimlarining oshirilishiga erishilmoqda. Jazoni ijro etish muassasalarida hamkor tashkilotlar bilan o'tkaziladigan tadbirlar mahkumlarda Vatanga sadoqat hissini uyg'otish, qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalash, ularda sodir etgan jinoyatidan pushaymonlik hissini uyg'otishga xizmat qilmoqda.

Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarning mavjud bo'lgan muammolarini hal etish, ularni qiziqtirgan savollarga o'z vaqtida va tushunarli tarzda javob olishlarini ta'minlash maqsadida mahkumlar bilan sayyor qabullar tashkil etilib kelinmoqda. Sayyor qabullarni tashkil etishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi: Sayyor qabullarda mahkumlarning murojaatlari hal etilganligi, sayyor qabullar davomida qanday mazmundagi eng ko'p murojaatlar kelib tushganligi tahlil etilib, tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda, sohaviy xizmatlar tomonidan o'zining yo'nalishlari bo'yicha murojaatlarning kamayishi bo'yicha tegishli choralarining ko'riliishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ya'ni IIBlar, prokuratura, adliya, sud organlari bilan hamkorlikda mahkumlarning mavjud muammolarini o'rganib borilishi, uchrashuvga kelgan mahkumlarning yaqin qarindoshlari va oila a'zolari ishtirokida ham sayyor qabullarni tashkil etib, muammolarni hal etib borish. Har bir o'tkazilgan sayyor qabullar tahlil etilib, murojaatlar davomida eng ko'p qilinayotgan murojaatlar bo'yicha muammolarni bartaraf etish maqsadida mahkumlar bilan tegishli huquqiy-profilaktik tadbirlar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. Jumladan, koloniyalarda o'tkazilgan sayyor qabullar davomida mahkumlardan kelib tushadigan murojaatlar yuzasidan sohaviy xizmat xodimlari tomonidan koloniyada jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar bilan targ'ibot-tashviqot ishlari yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, koloniyada jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar bilan prokuratura, sud, adliya bo'limi vakillari bilan hamkorlikda o'tkazilgan uchrashuvlar natijasida mahkumlar tomonidan beriladigan savollarga tushunarli tarzda javob berish orqali mahkumlarning muammolari tezda hal bo'lishiga erishib kelinmoqda.

Koloniyada jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar bilan sayyor qabullar o'tkazilishi natijasida mahkumlarning huquqiy bilimlari oshirilishiga erishilishiga



shuningdek, mahkumlar va ularning oila a'zolari tomonidan yuqori turuvchi organlarga murojaatlar soni kamayishiga erishiladi. Jazoni ijro etish muassasalarini tomonidan "Hunarmand uyushmasi" va "Kasb –hunarga o'rgatish" markazlari bilan hamkorlikda jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarni, ayniqsa yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'rgatish choralarini ko'rish bo'yicha joylardagi jazoni ijro etish muassasalarida bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda, bunda mahkumlarni qiziqishi va layoqatidan kelib chiqqan holda bиринчи navbatda ozod etilishiga qisqa muddat qolganlarni kasb-hunarga ega bo'lishlarini ta'minlash, mahkumlarni jazo muddatlaridan kelib chiqqan holda, kamida 3 ta kasb-hunarga o'rgatish choralarini ko'rish.

Jazoni ijro etish muassasalarida "Hunarmand uyushmasi" bilan hamkorlikda Usta-shogird maktabi faoliyati yo'lga qo'yilib, ushbu maktabda: metalldan buyumlar yasash; yog'och o'ymakorligi; gul bosilgan gazlamalar va chokli buyumlar tayyorlash; mualliflik mebellarini tayyorlash; milliy poyabzal tayyorlash; novdalardan buyumlar (Ratang) to'qish; hajmli va shaklli qoliplarda quyilgan buyumlar tayyorlash; miniatyura, rangtasvir, naqqoshlik va bo'yoqli naqshlar tayyorlash kabi yo'naliishlarda mahkumlarni kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Kasb-hunarga o'rgatish markazlari tomonidan: avtomobilgarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash; elektragaz payvandchi; elektrik mantyor; duradgorlik kabi yo'naliishlarda mahkumlarni kasb-hunarga o'rgatish ishlari yo'lga qo'yilib kelinmoqda. Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tab ozodlikka chiqqan shaxslarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ularning kelgusida o'z yo'lini topishlari uchun ko'maklashish maqsadida hokimiyat huzuridagi Ijtimoiy-moslashtirish markazlari, II Olari huquqbazarliklar profilaktikasi va probatsiya xizmatlari, kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari va yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'linmalari bilan hamkorlikda ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tashkilotlarga mahkum ozod etilishidan 3 oy oldin hamda ozod etilgandan so'ng 10 kundan kechiktirmasdan belgilangan shu muddatlar davomida xabarnomalar yuboriladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Jazolarni ijro etish faoliyatini tashkil etish: Ma'ruzalar kursi / J.S. Muxtorov, R.N. Raxmanov, D.M. Usmonov va boshq. Mas'ulmuharrir I. Ismailov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017.
- 2.Xalilov D.A. Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuvi. Eurasian Journal Of Law, Finance And Applied Sciences. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7057278>
- 3.Tadjibaeva D.A. Ichki ishlar organlari jazoni ijro etish xizmati. Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – B. 342-343.
- 4.Narmatov N.S. Ichki ishlar vazirligi huzuridagi «Qo'riqlash» birlashmasining yuridik shaxs sifatidagi faoliyatini huquqiy tartibga solish: Yurid. fanlar nomzodi .. dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2002. – B.45
- 5.Yuldashev M. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini tashkil yetishda xorij tajribasi. Oliy sud axborotnomasi, 2009 yil 2-son
- 6.Yuldashev M.Sh. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini tashkil etish. O'quv qo'llanma. Toshkent.2010-B.59.
- 7.Vetoshkin S.A. Penitensiarnaya pedagogika v teorii i praktike. M.: KnoRus, 2019. S. B 43-56
- 8.Pulatov. Yu.S, Inog'amov Sh. Differensiayalash// Qonun himoyasida.- 2002.-№ 6.- B. 30-32.
- 9.Yuldashev. M.Sh, Samandarov D.I. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini tashkil etishda inson huquqlarini ta'minlash va takomillashtirish// Nukus, 2008.-B. 287-290.
- 10.Sattorov A. El-yurt osoyishtaligi generallari.T. "NISO POLIGRAF". 2021.- B. 242.
- 11.Ismailov I. Uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishni nazariy va tashkiliy-huquqiy ta'minlash: Yurid. fan. d-ri ... dis. – Toshkent, 2006. – B. 199.
- 12.Jinoyat ijroiya kodeksiga sharhlar. Mas'ul muharrir:yu.f.d., prof. M.H. Rustamboev. – T.: TDYuI nashriyoti, 2007. – B.192
- 13.Qodirov.Q.B. O'zbekistonda penitensiar muassasalar faoliyati tarixi. Monografiya. Toshkent. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi. 2023.



- 14.**Qodirov Q.B, Tatarnikov M.D. O'zbekiston xalqi xizmatida. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. T. 2021- B.369.
- 15.**Казанцев В.Н. Социальная работа в ИУ Швейцарии и РФ// Человек преступление и наказание- 2001.№ 3-С.43.
- 16.**Баранов Ю. В. Стадии ресоциализации осуждённых в свете новых социальноантропологических воззрений и социальной философии. СПб.: издательство Р. Асланова Юридический центр Пресс, 2006. С. 19
- 17.**Рыбак М. С. Ресоциализация осуждённых к лишению свободы: проблемы теории и практики. 2-е изд., испр. и доп. Саратов: издательство ГОУВПО Саратовская государственная академия права, 2004. С. 34